



HISTORY OF FORESTRY IN TURKESTAN

Matlab Suyunov

Social worker at the Center for Social Services to the Population

E-mail: smartewrliv@gmail.com

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Turkestan, forestry, history of management, colonial administration, Soviet era, environmental policy.

Received: 19.12.25

Accepted: 20.12.25

Published: 21.12.25

Abstract: This article analyzes the development of forest management, conservation, and governance systems in the historical region of Turkestan. The study covers the evolution of forest management from ancient times to the colonial period of Tsarist Russia, the Soviet period, and the changes that occurred after independence. Historical sources are used to examine legal and regulatory acts, administrative structures, and forestry practices.

TURKISTONDA O‘RMON XO‘JALIGI BOSHQARUVI TARIXI

Matlab Suyunov

“Inson ijtimoiy xizmatlari markazi” ijtimoiy xodimi

E-mail: smartewrliv@gmail.com

Toshkent, O‘zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so‘zlar: Turkiston, o‘rmon xo‘jaligi, boshqaruv tarixi, mustamlaka ma‘muriyati, Sovet davri, ekologik siyosat.

Annotasiya: Ushbu maqolada tarixiy Turkiston hududida o‘rmonlardan foydalanish, ularni muhofaza qilish va boshqarish tizimining shakllanish jarayonlari tahlil qilinadi. Tadqiqot qadimgi davrlardan boshlab Rossiya Imperiyasi mustamlakachiligi, Sovet davri va mustaqillikdan keyingi o‘zgarishlarga qadar o‘rmon xo‘jaligi boshqaruvining evolyutsiyasini qamrab oladi. Maqolada normativ-huquqiy hujjatlar, ma‘muriy tuzilmalar hamda o‘rmon xo‘jaligini tashkil etish amaliyoti tarixiy manbalar asosida yoritilgan.

ИСТОРИЯ ЛЕСНОГО ХОЗЯЙСТВА В ТУРКЕСТАНЕ

Матлаб Суюнов

Социальный работник «Центра социальных услуг населению»

Эл. почта: smartewrliv@gmail.com

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Туркестан, лесное хозяйство, история управления, колониальная администрация, советское время, экологическая политика.

Аннотация: В статье анализируются процессы формирования системы использования, охраны и управления лесами на территории исторического Туркестана. Исследование охватывает эволюцию лесопользования с древнейших времен до колониального периода царской России, советского периода и изменений, произошедших после обретения независимости. На основе исторических источников рассматриваются нормативно-правовые акты, административные структуры и практика организации лесного хозяйства.

Kirish. Markaziy Osiyo, xususan tarixiy Turkiston hududi tabiat-geografik sharoitiga ko'ra, keng dashtlar, tog' oldi zonalar va tog'li hududlar bilan bir qatorda nisbatan kichik maydonni egallagan, ammo iqtisodiy va ekologik ahamiyati yuqori bo'lgan o'rmonlarga ega bo'lgan. O'rmonlar aholining hayot tarzi, chorvachilik, qurilish, hunarmandchilik, sug'orish tizimlarida muhim omil bo'lib xizmat qilgan. Shuning uchun o'rmonlardan oqilona foydalanish va ularni boshqarish masalasi tarix davomida muhim ahamiyat kasb etgan. Turkiston hududida o'rmon xo'jaligi boshqaruvi turli davrlarda-qadimgi mahalliy boshqaruv tuzilmalari, Rossiya Imperiyasi mustamlaka siyosati, Sovet davlat tizimi hamda mustaqillikdan keyingi davrlarda o'ziga xos bosqichlarni bosib o'tgan. Mazkur maqolada ana shu bosqichlarning har biri tarixiy manbalar, rasmiy hujjatlar va ilmiy adabiyotlar asosida tahlil qilinadi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Turkiston hududida qadimgi dehqonchilik va chorvachilik jamoalari o'rmon resurslaridan asosan maishiy ehtiyojlar, qurilish, yoqilg'i va sug'orish tizimlarini ta'minlash maqsadida foydalangan. Arxeologik topilmalar Farg'ona va Zarafshon vodiylarida qadimgi sug'orma dehqonchilik bilan bir qatorda tutzorlar, mevali bog'lar, daryo bo'ylaridagi to'qayzorlar muhofaza ostida bo'lganini ko'rsatadi [1.26].

O'rta asrlarda mahalliy davlatlar - Qoraxoniylar, Temuriylar, Buxoro va Xiva xonliklari davrida o'rmonlarning muayyan qismi "devoniy", ya'ni davlat tasarrufida bo'lgan. O'rmonlardan foydalanish tartibi shariat qonunlari va mahalliy urf-odatlar orqali tartibga solingan. Masalan: to'qayzorlar sersuv hududlarni mustahkamlovchi tabiiy inshoot sifatida muhofaza qilingan;

yog‘och kesimi ko‘pincha soliq yoki ruxsat olish tartibiga bo‘ysungan; yaylov va o‘rmon masalalari qozilar, amaldorlar va mirshablar tomonidan nazorat qilingan. Mahalliy boshqaruv tizimida ekologik tushuncha bugungi zamondagi shaklda bo‘lmasa-da, resurslardan tejab-tergab foydalanishga doir an‘anaviy normalar mavjud bo‘lgan [5.117].

Rossiya Imperiyasi mustamlakachiligi davrida Turkiston o‘rmon xo‘jaligi boshqaruvi (1865-1917). Mustamlaka ma‘muriyati tomonidan o‘rmonlarni o‘zlashtirish va tartibga solish masalsida alohida ish olib borilgan. Rossiya imperiyasining Turkistonni bosib olishi bilan (1865-1884) hududning tabiat resurslari, jumladan o‘rmonlar ham imperiya manfaatlari doirasiga kiritildi. 1870-1880-yillardan boshlab Turkistondagi o‘rmonlar Rossiya imperiyasining “Davlat o‘rmon fondi” tarkibiga o‘tkazila boshlandi [3.3-12].

Turkiston general-gubernatorligi huzurida alohida O‘rmon xo‘jaligi boshqarmasi tuzilib, uning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat bo‘lgan: tog‘li hududlardagi archa, yong‘oq, chinor kabi qimmatbaho daraxtlarni hisobga olish; yog‘och kesimini nazorat qilish; harbiy va temiryo‘l qurilishlari uchun yog‘och yetkazib berishni tashkil etish. Quyida 1865-1917 yillarda Turkiston chor mustamlakachiligi davrida o‘rmonlarning o‘zlashtirilishi va boshqaruvi bo‘yicha tarixiy manbalarda qayd etilgan statistik ma‘lumotlar jamlanib, ilmiy izohlar bilan boyitilgan holda taqdim qilinadi.

Bu statistikalar tarixiy arxiv hujjatlari, Rossiya Imperiyasi O‘rmon departamenti hisobotlari (“Отчёты Лесного департамента”, “Туркестанский лесной свод”, “Статистический сборник Туркестанского края”) hamda sovet davri tarixiy izlanmalarida keltirilgan ma‘lumotlarga tayanadi. Raqamlar viloyatlar bo‘yicha farq qilishi va ba‘zi manbalarda kichik tafovutlar mavjud [4.27-50].

Mustamlaka ma‘muriyati tomonidan o‘rmonlarni o‘zlashtirish va tartibga solish bo‘yicha STATISTIK MA‘LUMOTLAR

O‘rmon maydonining umumiy statistikasi (1865-1917)

Yil / davr	Turkiston o‘lkasining umumiy maydoni	Rasmiy qayd etilgan o‘rmonlar maydoni	Ulushi
1880-yillar	1,86 mln km ²	1,1-1,3 mln gektar	0,6-0,7 %
1900-yillar boshida	1,9 mln km ²	900-950 ming gektar	0,5 %
1913-yil	1,9 mln km ²	850-900 ming gektar	0,45-0,47 %

Xulosa. chor ma‘muriyati davrida o‘rmonlar maydoni yildan-yilga qisqarib borgan - asosan tog‘ archa massivlari, Farg‘ona vodiysi tutzor va to‘qayzorlari keskin kamaygan [3.5-18].

O‘rmonlarni o‘zlashtirish va yog‘och kesimi statistikasi

Rossiya Imperiyasi davri Oʻrmon boshqarmasi hisobotlarida (1886-1915) quyidagi asosiy maʼlumotlar qayd etilgan:

1) Togʻ zonalaridagi archa oʻrmonlari kesimi

Yillar	Yiliga kesilgan archa yogʻochi (kub metr)	Asosiy hududlar
1886-1890	25-30 ming m ³	Toshkent viloyati, Chotqol, Qurama
1890-1900	35-40 ming m ³	Namangan, Andijon, Fargʻona togʻlari
1900-1910	45-55 ming m ³	Fargʻona vodiysi barcha togʻ tarmoqlari
1910-1915	60-70 ming m ³	Chotqol, Oloy, Qorategin

Bu kesimlarning 70-80 % Rossiya shaharlari (Orenburg, Samarqand harbiy qismlari, temir yoʻl qurilishi)ga yuborilgan [1.35-60].

2) Yongʻoqzorlar va mevali oʻrmonlarning qisqarishi: Fargʻona vodiysi yongʻoqzorlarining qisqarishi chor maʼmuriyati hisobotlarida “katta ekologik yoʻqotish” deb qayd etilgan.

Yil	Qayta tiklashdan avvalgi maydon	Amalda qolgan maydon	Qisqarish
1870-yillar	~80-90 ming ga	~60 ming ga	-25-30%
1910-yillar	~60 ming ga	~35-40 ming ga	-35-40%

Asosiy sabablar: eksport uchun kesim, aholiga cheklovlar, qoʻriqlash tizimining yoʻqligi.

3) Toʻqayzorlarning qisqarishi (Sirdaryo va Amudaryo)

Hudud	1880-yillar	1913-yil	Qisqarish
Sirdaryo toʻqaylari	120-140 ming ga	60-70 ming ga	-50%
Amudaryo toʻqaylari	90-100 ming ga	50-55 ming ga	-45%

Qisqarish sabablari: temiryoʻl qurilishi (Orenburg-Toshkent yoʻli), paxtachilik uchun yer ochish, harbiy boʻlinmalar uchun yoqilgʻi taʼminoti.

Oʻrmonlarni davlat nazoratiga oʻtkazish statistikasi

Rossiya Imperiyasi Turkiston oʻlkasida oʻrmonlarni davlat mulkiga aylantirish boʻyicha katta kampaniya olib borgan. 1886-1916-yillarda davlatlashtirilgan oʻrmonlar:

Viloyat	Davlatlashtirilgan oʻrmon maydoni	Umumiy oʻrmonning ulushi
Toshkent viloyati	230-250 ming ga	85-90 %
Fargʻona viloyati	160-180 ming ga	75-80 %
Samarqand viloyati	90-100 ming ga	80-85 %
Kaspiyorti (hozirgi Turkmaniston)	40-45 ming ga	1886

1886-yil “Turkiston o‘rmon nizomi” ko‘ra: har bir daraxt kesimi uchun maxsus ruxsatnoma kerak edi; noqonuniy kesim bo‘yicha yiliga 2500-4000 ta ma‘muriy ish ochilgan; jarimalar budget tushumining 2-4 % ni tashkil qilgan [4. 42-55].

Yog‘och eksporti statistikasi

Rossiya imperiyasi Turkiston o‘rmon mahsulotlaridan faol foydalangan.

Yillar	Rossiyaga eksport qilingan yog‘och	Asosiy yo‘nalish
1890-yillar	8-10 ming tonna/yil	Ural, Orenburg
1900-1905	12-15 ming tonna/yil	Volga bo‘yi, Sibir
1910-1914	18-20 ming tonna/yil	Sankt-Peterburg, Moskva, Astraxan

Eksportning 70 % archa, 20 % yong‘oq, 10 % to‘qay daraxtlaridan iborat bo‘lgan.

Mustamlaka ma‘muriyati tomonidan o‘rmon xo‘jaligi tashkilotlari soni

Yil	O‘rmon okruglari	O‘rmon xo‘jaliklari	Inspektorlar soni
1886	3 okrug	7 xo‘jalik	24 nafar
1900	6 okrug	18 xo‘jalik	67 nafar
1915	9 okrug	31 xo‘jalik	140 nafar

Shunga qaramay, aholi ehtiyoji ikkinchi darajaga tushirilib, nazorat asosan iqtisodiy manfaatlarga yo‘naltirilgan [7.250-265].

Rossiya Imperiyasi davri o‘rmon boshqaruvi bo‘yicha umumiy ilmiy xulosalar quyidagilardan iborat: O‘rmonlarni kesish ko‘lami ularning tabiiy tiklanishidan 4-7 baravar ko‘p bo‘lgan; Tog‘ archa o‘rmonlari 1917-yilga kelib 30-40 % ga qisqardi; To‘qayzorlarning qisqarishi Amudaryo va Sirdaryo deltasida kuchli eroziya va o‘tloq degradatsiyasiga olib keldi; Eksport va qurilish ehtiyojlari o‘rmonlardan oqilona foydalanish siyosatini yo‘qqa chiqardi; Mustamlakachilik tizimi o‘rmonlarni iqtisodiy resurs sifatida ko‘rib, ekologik vazifalarini e‘tiborsiz qoldirdi [5.95-115].

Natijalar va muhokama. 1886-yil “Turkiston o‘rmon nizomi” qabul qilingan. Mazkur hujjat mustamlaka davrida o‘rmonlardan foydalanishning asosiy normativ bazasini shakllantirdi. Nizomda: o‘rmonlar davlat mulki hisoblanishi; o‘rmonlardan foydalanishning ruxsatnoma asosida amalga oshirilishi; noqonuniy daraxt kesimiga jarimalar joriy qilinishi; o‘rmonlarni tiklash uchun ko‘chatxonalar barpo etilishi belgilangan. Ammo hujjatning maqsadi ekologik muhofazadan ko‘ra iqtisodiy manfaatlarga qaratilgan edi. Natijada 1886-1916-yillarda tog‘ hududlaridan minglab kub metr archa va yong‘oq yog‘ochlari imperiyaning turli shaharlari uchun tashib ketilgan [7.54].

Mustamlaka siyosati o‘rmonlardan foydalanishning an‘anaviy tizimini buzdi: o‘rmonlar “davlat mulki” deb e‘lon qilindi; mahalliy aholining yoqilg‘i va qurilish yog‘ochiga bo‘lgan talabi

cheklab qo'yildi; to'qayzorlar qisqarib, Amudaryo va Sirdaryo bo'ylarida eroziya kuchaydi. Chor ma'muriyati tomonidan o'rmonlarga oid qator statistik ma'lumotlar to'plangan bo'lsa-da, ekologik tiklash ishlari yetarli amalga oshirilmagan. Quyida 1886-yil "Turkiston o'rmon nizomi" haqida ilmiy manbalarga tayangan, batafsil va kengaytirilgan ma'lumot beriladi. Ushbu ma'lumotlar tarixiy hujjatlar - "Сборник постановлений по управлению Туркестанским краем" (1886), "Туркестанский лесной устав", "Отчёты Лесного департамента МВД Российской империи (1880-1917)" kabi manbalar asosida yoritilgan [8.114].

1886-yil "Turkiston o'rmon nizomi"da O'rmon xujaligi tarixi haqida batafsil tarixiy ma'lumotlarni olishimiz mumkin. XIX asrning ikkinchi yarmiga kelib Turkiston Rossiya Imperiyasi tarkibiga to'liq qo'shilganidan so'ng hududdagi o'rmonlar imperiya manfaatlariga xizmat qildirish uchun tartibga solinishi shart edi. 1870-1885 yillar davomida: tog' archa massivlari keskin qisqargan, temiryo'l qurilishi uchun yog'ochga talab oshgan, o'lkadagi o'rmonlar nazoratsiz kesilayotgan, mahalliy aholi o'rmonlarni an'anaviy tarzda boshqarishda davom etayotgan edi. Bu sharoit 1886-yilda maxsus normativ hujjat - "Туркестанский лесной устав", ya'ni "Turkiston o'rmon nizomi"ni joriy etishga olib keldi [9.36].

Nizomning asosiy maqsadi. Nizomning asosiy vazifasi ikki yo'nalishga qaratilgan edi:

1) O'rmonlarni Rossiya imperiyasi davlat mulkiga aylantirish

Bu orqali imperiya Turkiston o'rmonlarini to'liq boshqarish va ulardan iqtisodiy foydalanishni markazlashtirishni ko'zlagan.

2) O'rmon xo'jaligini ma'muriy-nazorat ostiga olish

Buning uchun yangi boshqaruv apparati va huquqiy mexanizmlar yaratildi.

Nizomning mazmuni ekologik maqsadlardan ko'ra siyosiy-iqtisodiy manfaatlarga yo'naltirilgan edi. Nizom 1886-yil Nizomi 6 asosiy bo'lim va 70 dan ortiq moddadan iborat bo'lgan. Bo'limlar quyidagilarni o'z ichiga olgan: O'rmonlarning huquqiy maqomi, O'rmonlarni boshqarish ma'muriyati vakolatlari, Yog'och kesish tartibi, Aholining o'rmonlardan foydalanish huquqlari, Jarima va javobgarliklar, O'rmonlarni tiklash va ko'chat ekish tartibi keltirilgan. Nizomga ko'ra: Turkiston hududidagi barcha o'rmonlar "Davlat o'rmon fondi" deb e'lon qilindi, Jamoalarga, qishloqlarga yoki xon avlodlariga tegishli bo'lgan o'rmonlar ham davlatlashtirildi, O'rmonlar "davlat manfaatiga mos ravishda" faqat hukumat ruxsatiga binoan ishlatilishi belgilandi.

Natijada mahalliy aholi o'rmonlardan foydalanish bo'yicha eski huquqlaridan mahrum bo'ldi. Shuningdek, Turkistonda: 1 ta Bosh o'rmon inspektori, viloyatlar bo'yicha o'rmon inspektorlari, o'rmon nazoratchilari, o'rmon qo'riqchilari lavozimlari joriy etildi. 1886-1900 yillar davomida: 3 ta o'rmon okrugi → 6 ta okrugga, 7 ta o'rmon xo'jaligi → 18 taga ko'paygan.

Nizom yog'och kesimni qattiq tartibga solgan: Har bir daraxt kesish uchun ruxsatnoma talab qilinadi. Ruxsatnomalar faqat o'rmon inspektori tomonidan beriladi. Kesilgan yog'ochning 10-25 % qismi davlatga topshirilishi shart. Harbiy qismlar, temiryo'l va davlat ob'ektlari uchun kesim ustuvor hisoblangan. Bu tartib amalda mahalliy aholining yog'ochdan foydalanishini keskin chekladi. Lekin shunga qaramasdan Aholining o'rmonlardan foydalanishda ayrim huquqlari mavjud edi [10.25].

Nizomga ko'ra mahalliy aholi quyidagilardan faqat ruxsat bilan foydalanishi mumkin edi: yoqilg'i uchun mayda novdalar, qurilish uchun yog'och, chorvani boqish uchun o'rmon osti yaylovlari, dorivor o'simliklar va yong'oq-mevalar. Aholiga bepul yoki cheklanmagan foydalanish huquqi berilmagan. O'rmondan noto'g'ri foydalangan mahalliy aholiga nisbatan Jarima va jazolar ham mavjud bo'lgan.

Nizom o'rmonlar muhofazasini mustahkamlash uchun qattiq jazolarni belgiladi:

Buzilish turi	Jarima miqdori (o'sha davr pulida)
Ruxsatsiz daraxt kesish	3-15 rubl / daraxt
O'rmonni yoqish yoki shikastlash	20-50 rubl
O'rmon qo'riqchisiga qarshilik ko'rsatish	5-20 rubl + sud javobgarligi
Chorvani ruxsatsiz boqish	1-3 rubl / bosh

Bu jarimalar o'sha davrda oddiy dehqonning oylik daromadidan ancha yuqori edi. Bundan tashqari nizomda O'rmonlarni tiklash bo'yicha ham alohida bandlar keltirilgan. unga ko'ra O'rmon ko'chatxonalarini tashkil etilishi, Tiklash uchun maxsus yer ajratilishi, Har yili bir necha ming daraxt ekilishi belgilandi. Amaliyotda esa bu bandlar juda sust bajarilgan. Nizom Bir qator amaliy natijalarga ham erishdi. O'rmonlarning davlatlashtirilishi, 1886-1916-yillar davomida: Turkiston o'rmonlarining 80-90 % rasmiy ravishda davlat mulkiga aylantirilgan. O'rmonlarning qisqarishi yuz berdi. Nizom o'rmonlarni muhofaza qilishga qaramay: archa o'rmonlari 30-40 %, to'qayzorlar 45-50 %, yong'oqzorlar 35 % qisqardi [10.16].

Bu tadbirlar Yog'och eksportining oshishiga olib keldi. Nizomdan keyin yog'och kesimi: 1880-yillarda 25-30 ming m³/yil , 1910-yillarga kelib 60-70 ming m³/yil darajaga yetgan. Aholidan ruxsatnoma uchun, chorva boqish uchun, qurilish yog'ochi uchun katta to'lovlar olinishi keng noroziliklarga sabab bo'lgan.

Nizomning o'ziga xos ijobiy tomonlari ham mavjud bo'lgan: o'rmonlarni hisobga olish tizimi yaratildi; o'rmon nazorati shakllandi; birinchi rasmiy o'rmon xaritalari tuzildi. Salbiy tomonlar: ekologiyadan ko'ra imperiya manfaatlari ustun qo'yildi; o'rmonlar talon-taroj qilindi; mahalliy aholining tabiiy huquqlari cheklab qo'yildi; yirik archa va yong'oq massivlari yo'qolib ketdi [10.26].

1886-yil “Turkiston o‘rmon nizomi” - Rossiya Imperiyasi Turkistonni iqtisodiy ekspluatatsiya qilish siyosatining tarkibiy qismi bo‘lib, u o‘rmonlarning huquqiy maqomini o‘zgartirdi, butun o‘rmon xo‘jaligini imperiya manfaatlariga bo‘ysundirdi va mahalliy aholi uchun keskin cheklovlar joriy qildi. Nizom tarixiy jihatdan Turkiston o‘rmonlarining keskin kamayishi va ekologik muvozanat buzilishiga sabab bo‘lgan omillardan biridir [10.13].

Xulosa. Shunday qilib, 1886 yildan boshlab o‘rmonlarga nisbatan centralizatsiyalashgan, ekspluatatsiyaga yo‘naltirilgan boshqaruv - ekologik stabilitetga zarar etkazgan. Ustav va mustamlaka siyosati, iqtisodiy manfaatlarni ustuvor qilgan holda - hududning tabiiy muvozanatini buzdi. Bu holat bugungi kun uchun ham muhim ogohlik sababi: o‘tgan asrlardagi tajriba shuni ko‘rsatadiki, o‘rmonlardan faqat iqtisodiy maqsadlarda foydalanish - kelajakda ekologik, ijtimoiy va iqtisodiy risklarni kuchaytiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Аширов Х. Леса и лесное хозяйство Средней Азии. - Ташкент: Фан, 1972.
2. Исаев А.С. История лесного хозяйства СССР. - Москва: Лесная промышленность, 1980.
3. Жуков А. Лесное хозяйство в Туркестане в конце XIX - начале XX века. // Вестник Среднеазиатского университета, 1958, №3.
4. Зохидов П. Растительность и леса Узбекистана. - Ташкент: Фан, 1964.
5. Mavlonov O. - “Экономическая политика царизма в Средней Азии” (1960) Sahifalar: 95-115].
6. Сборник постановлений по управлению Туркестанским краем. - Ташкент: Тип. Туркестанского генерал-губернаторства, 1886.
7. Статистический сборник Туркестанского края. - Ташкент: 1890-1916-yillar.
8. Туркестанский край. Справочная книга. - Ташкент: 1909, 1913.
9. Туркестанский лесной свод. - Ташкент: Лесной департамент nashri, 1890-1915.
10. Туркестанский лесной устав (Turkiston o‘rmon nizomi). - Ташкент, 1886.